

O'ZBEKISTONDA LEGAL TECH SOHASIDA INNOVATSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI

Temurova Madinabonu

Temirovamadina46@gmail.com

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ommaviy huquq fakulteti V-potok 1-guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot Legal Tech sohasidagi innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini o'rGANISHGA qaratilgan. Bugungi kunda huquqiy xizmatlarni raqamlashtirish va avtomatlashtirish zarurati ortmoqda. Tadqiqotda huquqiy xizmatlarning raqamlashtirilishi, Legal Tech startaplarining moliyaviy ehtiyojlari va mavjud mexanizmlarining taxlili haqida so'z olib boriladi. Ishda statistika, so'rovnama, qiyosiy tahlil va eksport so'rovlardan foydalanilgan. Natijalar, O'zbekistonda mavjud moliyalashtirish manbalarining imkoniyatlari va chekllovlar bayon qilingan. Shu bilan birga, huquqiy moliyaviy to'siqlar hamda bu sohani rivojlanadirish uchun tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Legal Tech, milliy adabiyotlar, xorijiy qonunlar, texnologiya, strategiya, huquqshunoslik sohasi, moliyaviy muammolar, expert so'rovlari, iqtisodiyot, raqamlashtirish, innovatsion loyihalalar.

KIRISH

Hozirda butun dunyoda texnologiyalar rivojlanib bormoqda va inson faoliyatining turli sohalarini raqamlashtirilmoqda. Shuningdek, O'zbekistonda ham texnologiyalardan foydalanishga bo'lgan talab ortib bormoqda. Negaki bugungi kunda bevosita har bir soha vakillarining faoliyati texnologiya bilan bog'langan. Shular jumlasidan, huquqshunoslik sohasi ham bundan mustasno emas. Huquqshunoslardan bevosita o'z faoliyati davomida turli xil yuridik xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan ilovalardan foydalanadi. Ular foydalanadigan yuridik xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan ilovalar texnologiya olamida "Legal Tech" deb ataladi.

Shuningdek, hozirda O'zbekistonda raqamli formatga o'tish jarayonlari tez sur'atda rivojlanib bormoqda va ayni vaqtida bu jarayon O'zbekistonda rivojlanish bosqichida. Shu bois ushbu tadqiqot O'zbekistonda Legal Tech sohasidagi innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini o'rGANISHGA qaratilgan.

Bugungi kunda Legal Tech sohasidagi innovatsion loyihalarni moliyalashtirish to'g'risidagi tadqiqotning dolzarbli shundaki agar davlat legal techning loyihalarni moliyalashtirmasa bevosita mazkur ilovadan foydalanayotgan odamlarning noroziligiga sabab bo'ladi. Negaki, ular o'zlarining ko'pgina muammoli vaziyatlariga LegalTech ilovalariga murojat qilish orqali yechim topishayotgan edi. Tadqiqotning dolzarbli bir necha omillar bilan belgilanadi. Birinchidan, O'zbekistonda huquqiy xizmatlar sohasi raqamlashtirilishi zarur. Ikkinchidan, Legal Tech startaplarini moliyaviy qo'llab

quvvatlashga bo‘lgan ehtiyoji dolzarb ahamyatga ega bo‘lmoqda. Uchindan esa innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarining hozirda rivojlanish bosqichida ekanligi O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyotini rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonda Legal Tech sohasidagi innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini taxlil qilish va takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Qo‘yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi.

- Legal Tech tushunchasini va uning asosiy yo‘nalishlarini tahlil qilish.
- Advokaturada Legal Tech vositalarini qo‘llashning avzal tomonlarini aniqlash.
- Legal Tech sohasidagi innovatsion loyihalarni moliyalashtirishdagi qiyinchiliklarni aniqlash.
- Legal Tech sohasidagi loyihalarni moliyalashtirish mexanizmalari va moliyalashtirish bo‘yicha milliy normativ hujjatlarni aniqlash.
- Legal Tech sohasidagi loyihalarni moliyalashtirish bo‘yicha horijiy huquqiy hujjatlarni aniqlash.
- Legal Tech sohasidagi innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mavzusida milliy, xorijiy adabiyotlarni keltirib o‘tish va shu asosida chet el tajribasini va statistikasini ko‘rib chiqish.
- Legal Tech loyihalarini moliyalashtirishni samarali joriy etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot natijasida olingan ma’lumotlar nafaqat huquqshunoslar uchun balki oddiy aholi uchun ham Legal Tech ilovalari imkoniyatlaridan yanada samarali foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berish imkonini beradi. Shuningdek, ushbu sohadagi ilmiy bilimlarni boyitishga xizmat qiladi.

USULLAR

Ushbu tadqiqot O‘zbekistonda Legal Tech sohasida innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini o‘rganish maqsadida miqdoriy va sifatiy usullarni qo‘llagan holda olib borish uchun quyidagi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Adabiyotlar tahlili: Legal Tech sohasidagi milliy va xorijiy huquqiy hujjatlar, milliy va xorij ilmiy maqolalari va boshqa manbalarga asoslangan holda mavzuga oid nazariy asoslar o‘rganildi. Google scholar, google, ciberlenica kabi ma’lumotlar bazasidan foydalanildi. Tahlil jarayonida “legal tech”, “finance of legal tech projects” kabi kalit so‘zlar orqali qidiruv amalga oshirildi va so`ngi 10 yil ichida chop etilgan manbalar ustuvorlik bilan tanlab olindi.

So`rovnama: Legal Tech vositalarining afzal tomonlari va uning ahamyati baholash maqsadida huquqshunoslar orasida onlayn so`rovnama o‘tkazildi. So`rovnomada 70 nafar Legal Tech ilovalarining hodimlari ishtirok etdi. So`rovnama savollari Legal Tech vositalaridan foydalanish darajasi, ularning afzalliklari, haqidagi savollarni o‘z ichiga oldi. So`rovnomadagi ishtirokchilar soni kam bo‘lganligi sababli so`rovnama dasturisiz taxlil qilindi.

Savol javob: Legal Tech sohasidagi 5 nafar ekspert bilan yarim struklashtirilgan intervyular o‘tkazildi. Intervyular Zoom platformasi orqali masofaviy tarzda amalga

oshirildi va har bir interviyu 60 daqiqa davom etdi. Intervyular jarayonida expertlarning Legal Tech sohasida innovatsion loyihalarni moliyalashtirish va uning qiyinchiliklari bo'yicha fikrlari o'rganildi.

Qiyosiy tahlil: Legal Tech vositalaridan faol foydalanayotgan AQSh statistikasi, Janubiy Koreya, Yevropa Ittifoqi va O'zbekistonning faoliyat ko'rsatkichlari taqqoslandi, ularning tajribalari haqidagi ma'lumotlar va Legal tech sohasidagi innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlari taxlil qilindi.

Tadqiqot davomida ma'lumotlarni himoya qilish qoidalariga qat'iy rioxaya qilindi. Shuningdek tadqiqotning cheklovleri sifatida tanlangan na'munalarning geografik chegaralanganligini ko'rsatish mumkin. Shuningdek yaqin yillarda Legal Tech sohasidagi muammolar tez sur'atlarda rivojlanishi tufayli olingan natijalar o'zining dolzarblik darajasini yo'qotishi mumkin. Bu cheklovlarni yo'q qilish uchun kelajakda yanada ko'proq ishtirokchilarni jalb qilish va keng qamrovli tadqiqotlar o'tkazish tavsiya etiladi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijasida legal tech tushunchasi va uning afzal tomonlari va qiyinchiliklari bo'yicha quyidagi asosiy ma'lumotlar olindi.

Legal Tech tushunchasini va uning asosiy yo'nalishlarini taxlil qilish.

"Legal Tech - bu huquqiy xizmatlarni taqdim etish, huquqiy tadqiqotlar o'tkazish, shartnomalarni tuzish, huquqiy hujjalarni tahlil qilish va boshqa ko'plab yuridik vazifalarni bajarishda yordam beradigan texnologik vositalar va dasturiy ta'minotlar majmuasidir⁷⁸".

Bularga O'zbekistonda mavjud bo'lgan advice.uz, yurxizmat.uz kabi ilovalarni misol qilib kiritishimiz mumkin.

Legal Techning an'anaviy yo'nalishlari:

- Shartnomani boshqarish,
- Materiya va ishlarni boshqarish,
- Hisob-kitob,
- Hujjalarni avtomatlashtirish,
- Hujjalarni saqlash,
- Elektron kashfiyot,
- Huquqiy tadqiqotlar,
- Amaliyotni boshqarish,
- Ishlarni boshqarish.

Advokaturada Legal Tech vositalarini qo'llashning afzal tomonlari.

So`rovnoma va intervyular natijasida Legal Techning vositalarining huquqshunoslarga quyidagi foydalari aniqlandi.

- Legal Tech vositalaridan foydalanish huquqshunoslarni o'z sohasida raqobatdosh bo'lishga yordam berishini ta'kidladilar.

⁷⁸ <https://civil.uz/legal-tech-huquqshunoslik-sohasidagi-texnologik-inqilob/>

- Mijozlar tezkor, samarali, va arzon huquqiy xizmatlarni kutishadi. Legal Tech bu talablarga javob berishga yordam beradi. Sababi aholi doim arzon, sifatli xizmatlarni xohlashadi bu esa ular uchun ayni muddao.
- Texnologiya huquqshunoslarni innovatsion xizmatlarni taklif qilish va yangi bozorlarni o`zlashtirish imkonini berayotganligini aytib o'tishdi.
- So'rovnomada ishtirok etgan huquqshunoslarning aksariyati Legal Tech vositalarini qo'llash orqalimish samaradorligi oshganini takidladi. Bunda birinchidan, vaqtin tejash imkon paydo bo'lGANI. Ikkinchidan, xatolar sonining kamayishi. Uchinchidan ko'proq mijozlarga xizmat ko'rsatish imkonining yaratilganligi.
- Ishtirokchilarning deyarli hammasi Legal Tech vositalari tufayli mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmat sifati yaxshilanayotganligini ta'kidladilar. Jumladan, huquqiy tahlil sifatining oshganligi, mijozlarga tezkor javob berish imkoniyatining kuchayganligi va murakkab huquqiy masalalarini hal etish qobiliyati ortganligini ma'lum qilishdi.
- So'rovnomada ishtirok etgan ishtirokchilarning Legal Tech vositalarini joriy etish natijasida xarajatlar kamayganligini ta'kidladi. Bunda birinchidan, ma'muriy harajatlar kamayganligi, ikkinchidan qog'oz hujjatlar bilan ishlashga ketadigan xarajatlarning kamayganligini bildirdi.

Legal Tech sohasidagi innovatsion loyihalarni moliyalashtirishdagi qiyinchiliklarni aniqlash.

Savol-javobda ishtirok etgan huquqshunoslar shuni ta'kidladiki, Legal Tech sohasidagi innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda asosiy muammolar quyidagilar:

Hozirda O'zbekistonda legal tech asosan rivojlanish bosqichida ekanligini hisobga olsak bu vaziyatda asosiy muammo bu qonunchilikdagi noaniqliklar

Legal Tech innovatsion loyihalarini moliyalashtirishga oid qonun hujjatlarining va normativ-huquqiy hujjatlar ko'pincha noaniq shu bilan birga bir-biriga zid kelish holatlari kuzatilmoqda.

- Moliya va soliq siyosati Innovatsion loyihalarni moliyalashtirishdagi soliq imtiyozlari yoki moliyaviy yordamlar yetarli taqdim etilmasligi mumkin. Bu esa investorlarning qiziqishini kamaytiradi.
- Bilamizki innovatsion loyihalar ko'p vaziyatlarda o'z ichiga yangi texnologiyalar va g'oyalarni qamrab oladi. Intelektual mulk huquqlarini himoya qilishdagi muammolar, masalan, patent olish jarayonidagi muammolar, loyihalarni moliyalashtirishda to'siq bo'lishi mumkin.
- Tashqi investitsiyalarni jalb qilishdagi qiyinchiliklarlar vujudga kelishi mumkin. O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda tashqi investorlar uchun huquqiy muhit noaniq bo'lishi mumkin, bu esa ularning investitsiya qilish qaroriga salbiy ta'sir ko'rsatadi.
- Mahalliy va xalqaro qonunlar orasidagi farqlar mavjud bo'lgan holatlar uchrab turibdi. Innovatsion loyihalarni ko'p hollarda xalqaro miqqyosda amalga oshiriladi. Mahalliy va xalqaro qonunlar o'rtasidagi farqlar investorlar uchun qo'shimcha qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin.

• Loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarining yetishmaslik holatlari mavjud. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun maxsus mexanizmlar, masalan, venture capital yoki angel investorlar kabi molyalashtirish turlari O`zbekistonda yetarlicha rivojlanmagan.

Shu bilan birga ushbu to'siqlar loyihalarni moliyalashtirish jarayonini murakkablashib bormoqda.

Legal Tech sohasidagi loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlari va moliyalashtirish bo'yicha milliy normativ hujjatlarni aniqlash.

Legal Tech sohasidagi innovatsion loyihalarni moliyalashtirishga doir qonunchilik hujjatlarimiz qabul qilingan bo`lib, ular quyidagilar:

“O`zbekiston Respublikasi Innovatsion faoliyat to`g`risida”gi qonuni. Ushbu qonuning 5-bobida Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish haqida normalar mavjud bo`lib, qonunning 31-moddasida innovatsion faoliyatni moliyalashtirish manbalari qaysilar ekanligi belgilab qo`yilgan.

“Innovatsion faoliyatni moliyalashtitish manbalariga quyidagilar kiradi:

- O`zbekiston Respublikasining reaspublika budjeti;
- Qoraqalpog`iston Respublikasining Respublika budjeti hamda viloyatlar va Toshkent Shahar mahalliy budjetlari;
- Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo`llab-quvvatlash jamg`armasi;
- Innovatsion faoliyatni qo`llab-quvvatlash jamg`armalari;
- Venchur jamg`armalari;
- Innovatsion faoliyat subyektlarining o`z mablag`lari;
- Qonun hujjatlarida taqilanganman boshqa manbalar⁷⁹.

Shuningdek bu qonunda innovatsion loyihalarni amalga oshirishda davlat tomonida loyihalarni moliyalashtirish uchun beriladigan imtiyozlar, subsidiyalar, subsidiyalar va grantlar haqida, Shuningdek, tashqi investitsiyalarni jalb qilish zaruriy sharoyitlar va rag`batlantirishlar taqdim qilishga va rivojlanishga, bundan tashqari innovatsion faoliyatini qo`llab-quvvatlashga mo`ljallangan moliyaviy dasturlar haqidagi normalar qayd etilgan.

O`zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to`g`risidagi qonunning 3-bob. Investitsiya faoliyati subyektlari huquqlarining davlat kafolatlari va investitsiyalarini himoya qilish deb nomlangan bo`lib, ushbu bobning “22 - moddasida investitsiyalarni himoya qilishning qo’shimcha kafolatlari va choralar O`zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan kafolatlardan berishni, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga ko`maklashishni, maxsus soliq va to`lov rejimini yaratishni, investitsiya loyihakari amalga oshirilishi yuzasidan davlat monitoringi o’tkazishni hamda O`zbekiston Respublikasi Hukumati bilan tuzilgan investitsiya shartnomalariga asosan boshqa choralarini o`z ichiga olishi mumkin⁸⁰.

⁷⁹ O`RQ-630-coh 24.07.2020. Innovatsion faoliyat to`g`risida. <https://lex.uz/docs/-4910391>

⁸⁰ O`RQ-598-coh 25.12.2019. Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to`g`risida. <https://lex.uz/uz/docs/-4664142>

Shuningdek bu qonunlarda innovatsion loyihalarni amalga oshirishda davlat tomonida loyihalarni moliyalashtirish uchun beriladigan imtiyozlar, subsidiyalar va grantlar haqida, Shuningdek, tashqi investitsiyalarni jalb qilish zaruriy sharoitlar va rag'batlantirishlar taqdim qilishga va rivojlanishga, bundan tashqari innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlashga mo'ljallangan moliyaviy dasturlar haqida ma'lumot beradi.

Legal Tech sohasidagi loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha xorijiy huquqiy hujjalarni aniqlash.

Tadqiqot davomida innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlari bo'yicha bir qancha xorij huquqiy hujjalari ko'rib chiqildi va Yevropa Ittifoqining "Raqamli yevropa dasturi" olindi va xorijiy huquqiy hujjat sifatida taqdim qilindi.

"Yevropa Ittifoqining moliyalashtirish dasturi raqamli texnologiyalarni tadqiq qilish va bozorni joylashtirish o'rtaqidagi bo'shliqni bartaraf etishga qaratilgan.

Dasturning asosiy yo'nalishlari asosan sun'iy intellekt, kiberxavfsizlik, raqamli ko'nikmalar va raqamli texnologiyalardan keng foydalanishni ta'minlash kabi muhim sohalardagi loyihalarni qo'llab-quvvatlaydi.

Ushbu dasturning imtiyozlari ham aynan Yevropa fuqarolari, korxonalari va davlat ma'muriyatlariga foyda keltirishga qaratilgan⁸¹.

Legal Tech sohasidagi innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mavzusida milliy, xorijiy adabiyotlarni keltirib o'tish va shu asosida chet el tajribasini ko'rib chiqish.

Tadqiqot davomida innovatsion loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha bir necha maqolalar milliy adabiyotlar sifatida o'r ganildi, shuningdek Legal Tech sohasi hozirda O'zbekistonda rivojlanish bosqichida bo'lganligi sababli bu mavzudagi adabiyotlar va maqolalar kam sonli ekanligini hisobga olgan holda, shu maqolaning ma'lumotlaridan milliy adabiyot sifatida foydalandim.

Tahlil davomida rivojlanayotgan mamlakatlardagi innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tajribasi o'r ganildi va ular O'zbekiston Respublikasida moliyalashtirilishi imkoniyati mavjudliligi aniqlandi. Xususan, "Yevropa Ittifoqi, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda innovatsion fondlar va grant dasturlari orqali loyihalarni moliyalashtirish keng ko'lamda qo'llaniladi. Shuningdek, xususiy sektorlar va davlat hamkorligiga asoslangan texnoparklar va inkubatorlar innovatsiyalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi"⁸².

Shu jumladan xorij statistikasi sifatida "Amerika Qo'shma Shtatidagi loyihalarni moliyalashtirish Amerikaning yirik banklari va xalqaro moliya institutlari tomonidan ta'minlanishi tadqiqotga kiritildi.

"ESFC Investment Group kompaniyasidan loyihalarni moliyalashtirish va investitsiya konsaltingi:

- 50 million yevrodan va undan ko`p.
- Loyiha qiymatining 90% gacha investitsiyalar
- Kredit muddati 10 yildan 20 yilgacha.

⁸¹ <https://www.digitaleurope.org/>

⁸² <https://scientific-jl.org/index.php/luch/article/view/288/268>

Amerika Qo'shma shtatlarida loyihalarni moliyalashtirish Amerikaning yirik banklari va xalqaro moliya insitutlari tomonidan ta'minlanishi mumkin.

Bu sohadagi eng mashhur kreditorlar Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB).

2015-yilda Qo'shma Shtatlardagi loyihalarni moliyalashtirish bozorining hajmi 56,5 milliard dollarni tashkil etdi va 140 ta bitim tuzildi, Bu Shimoliy va Markaziy Amerikadagi bitimlar sonining qariyb 20 foizini tashkil etdi⁸³.

AQSH va Janubiy Koreya mamlakatlarida innovatsion boshqaruv strategiyalari ahamiyatini atroflicha tadqiq etish asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

“• Xalqaro amaliyatda mamlakatlar milliy innovatsiya tizimini shakllantirish

bo'yicha turli modellar mavjud. Ayniqsa, AQSH Stanford universiteti profecori Genri Iskovis tomonidan taklif qilingan “Uch yoqlama spiral” (Triple Helix) modeli eng samarali modellardan hisoblanadi, AQSHning milliy innovatsiya tizimi ushbu modelga asoslanadi;

- AQSHda innovatsion rivojlanishni amalga oshirishda ta'lim muassasalari yetakchilik qilib, ular bevosita innovatsion iqtisodiyot bilan hamkorlikda faoliyat yuritadi. Bu quyidagi o'zaro bog'liqlikda tashkil etiladi.

1-bo'g'in ta'lim muassasalari;

2-bo'g'in ilmiy markazlar; laboratoriylar, ilmiy tadqiqot institutlari;

3-bo'g'in: innovatsion klasterlar.

AQSHda 1980 yillarga kelib, milliy innovatsiya tizimining konseptual asoslari shakllandi. AQSHning milliy innovatsiya tizimi, yuqorida ta'kidlanganidek, davlat, universitet va tadbirkorlar o'rtaсидаги узвиyo aloqalardan tashkil topgan bo'lib, ularning asosini yirik texnoparklar, biznes-inkubatorlar, venchur jamg'armalar, maxsus iqtisodiy zonalar va moliya-sanoat guruhlari tashkil etadi.

Bugungi kunda Janubiy Koreyaning 1000 dan ortiq innovatsion loyihalarida AQSH, Kanada, YEI, Yaponiya, Xitoy, Isroil va Rossiya kabi davlatlarning ishtiroy etishi, ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun yaratilgan innovatsion muhit ham yuqori darajada ekanligidan dalolat beradi. Janubiy Koreya iqtisodiyoti eksportga asoslangan bo'lib, tahlil qilingan davrda uning ulushi YAIMga nisbatan 50%dan yuqori ko'rsatgichni tashkil etgan. Bu jihatdan u rivojlangan mamlakatlarni (o'rtacha 25-45 %) ham ortda qoldirayotganini ta'kidlash kerak. Shuningdek, eksportning $\frac{1}{2}$ qicmida ortiq qismi yuqori texnologiyali innovatsion tovar, ish va xizmatlarni tashkil etishi mamlakatning raqobatdoshligini yanada oshirmoqda⁸⁴.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari Legal Tech tushunchasi va uning asosiy yo'nalishlari, huquqshunoslikdagi ahamiyatini tasdiqladi. Ish samaradorligining oshishi, xizmat sifatining yaxshilanishi Legal Techning eng muhim foydalari sifatida aniqlandi. Legal Techning innovatsion loyihalarini moliyalashtirishdagi qiyinchiliklar, loyihalarni moliyalashtirish

⁸³ <https://esfccompany.com/en/articles/project-finance/project-finance-in-the-usa/>

⁸⁴ INNOVATSION RIVOJLANISHNING AQSH VA JANUBIY KOREYA MAMLAKATLARI TAJRIBASINING AYRIM JIHATLARI <https://zenodo.org/records/6642887>

haqidagi milliy normativ va xorijiy huquqiy hujjatlar, shuningdek, milliy va xorijiy adabiyotlar, shu bilan birga chet el tajribalari ham o'rganildi.

Legal tech sohasidagi innovatsion loyihalarni moliylashtirishdagi qiyinchiliklar bo'yicha olingan ma'lumotlar qonunchilikdagi noaniqliklar, moliyaviy muammolar tadqiqotda ham asosiy muammolar sifatida aniqlangan.

Tahlil natijasiga ko'ra, yuqorida ko'rsatilgan muammolardan tashqari yana bir necha muammolar aniqlandi. Xususiy sektorlar loyihalarni moliyalashtirishda yetarli darajada faol emas. Xususiy korxonalar innovatsiyalarga sarmoya kiritishda tavakkal qilishni istamaydilar, chunki innovatsion loyihalarni yuqori xavf va uzoq muddatli natijalarni talab qiladi. Davlat tomonidan moliyaviy rag'batlantirish choralarini va soliq imtiyozlari yetarlicha ko'lami va ta'sir kuchiga ega emas.

Xusussiy sektorni jalb qilish uchun davlat tomonidan qo'shimcha soliq imtiyozlari, grant dasturlari va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish lozim. Innovatsion loyihalarga xususiy kapital jalb qilish orqali moliyalashtirish jarayonlarni kengaytirish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi innovatsion loyihalarni moliyalashtirish jarayonida mavjud bo'lgan qiyinchiliklar tizimli o'zgarishlar va islohotlarni talab qiladi. Moliyalashtirish jarayonida davlat xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, byurokratik to'siqlarni bartaraf etish va risklarni boshqarish bo'yicha strategiyalarni ishlab chiqish innovatsion faoliyatni samarali rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, xorijiy tajribadan foydalanish va ilg'or moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish O'zbekistonda innovatsion loyihalarning muvaffaqiyatli amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida O'zbekistonda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish uchun xorij tajribalarini o'rganish va ularning islohotlari yuzasidan chuqur ilmiy tadqiqotlar ishlab chiqilishi kerakligi ta'kidlandi. Bu maqsadga erishish uchun AQSH va Janubiy Koreyaning shu yo'nalishdagi tajribasini o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Janubiy Koreyaning innovatsion loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha siyosatining ba'zi jihatlarini mamlakatimizda Legal Tech sohasidagi innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda qo'llash munosibligi aniqlandi. Shuningdek, bu jarayonda bu sohadagi ilmiy ishlanmalarga bo'lgan ehtiyojning kamligini hisobga olish zarur. O'z navbatida bu holat ilmiy ishlanmalarni iqtisodiy manfatdorlikni kamaytiradi. Bunday vaziyatda rivojlangan xorijiy mamlakatlari bilan xalqaro hamkorlik aloqalarini yanada chuqurlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, O'zbekistonda Legal Tech sohasidagi innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini tahlil qilishga qaratilgan tadqiqot aniqlandi. Shu jumladan, O'zbekistonda Legal Tech sohasidagi innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun bir qator muhim omillarni hisobga olish zarur.

Birinchidan, mablag'larni jalb qilish maqsadida xususiy sektorlarni yanada o'ziga qaratish va ularni etiborini jalb qilish uchun yanada faolroq bo'lish kerak. Negaki, xususiy

sektorlar legal tech loyihalari moliyalashtirib tursa, bu sohadagi innovatsion loyihalari yanada ko'payaveradi va mualliflarga yanada yangi xizmatlarni taklif etishi uchun imkoniyat yaratadi.

Ikkinchidan, innovatsion loyihalarni samarali amalga oshirish uchun loyihami rasmiylashtirish jarayonini soddalashtirish mumkin. Bu soddalashtirish mualliflarga bir qator imkoniyatlar beradi, masalan tezroq odamlarga foydalanish uchun tadbiq qilish. Shuningdek, bu jarayon an'anaviy moliyalashtirishning bir necha murakkabliklarini ham o'z ichiga oladi.

Uchinchidan, Ozbekistonda innovatsion loyihalarni moliyaviy qo'llab quvvatlash uchun davlat kafolatlari shuningdek, moliyaviy qo'llab quvvatlash muammoni hal qilish davomida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga misol qilib, davlat tomonidan bir qancha imtiozlar, moliyaviy qo'llab quvvatlash shuningdek rag'batlantirish bilan birlashtirishda past foizli kredit stavkalalarini taklif qilish mumkin.

To`rtinchidan, tadqiqotda aniqlangan xorij mamlakatlari tajribasidan foydalanish O'zbekistonda innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tan olish joizki O'zbekistonda Legal Tech sohasi xorij mamlakatlari qaraganda orqada qolgan. Shu sababli rivojlangan xorij mamlakatlari tajribasiga tayanish innovatsion loyihalarni moliyalashtirish sohasida samarali usuldir.

Umuman olganda Legal Tech ilovalari O'zbekistonda rivojlanish jarayonida bo'lganligi sababli, moliyalashtirish tizimida bir qancha islohotlar zarur. Davlat va xususiy sektor orasidagi hamkorlikni mustahkamlash innovatsion loyihalarni moliyalashtirish bilan bog'liq aloqalarni kuchaytirish shu bilan birga xorij tajribasini va moliyaviy manbalarini jalg qilish orqali jadallashtirish mumkin.

FOYDALANILGA ADABIYOTLAR:

1. <https://civil.uz/legal-tech-huquqshunoslik-sohasidagi-texnologik-inqilob/>
2. O'RQ-630-соҳ 24.07.2020. Innovatsion faoliyat to'g'risida. <https://lex.uz/docs/-4910391>
3. O'RQ-598-соҳ 25.12.2019. Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida. <https://lex.uz/uz/docs/-4664142>
4. <https://www.digitaleurope.org/>
5. <https://scientific-jl.org/index.php/luch/article/view/288/268>
6. <https://esfccompany.com/en/articles/project-finance/project-finance-in-the-usa/>
7. INNOVATSION RIVOJLANISHNING AQSH VA JANUBIY KOREYA MAMLAKATLARI TAJRIBASINING AYRIM JIHATLARI <https://zenodo.org/records/6642887>